

**Jumaeva Nilufar Axmatovna**  
Buxoro davlat universiteti  
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası  
katta o'qituvchisi  
**UDK 93/94**

**BUXORO VOHASIDA BOSHOQLI EKINLARNI YIG'ISHTIRISH BILAN BOG'LIQ  
UDUMLAR XUSUSIDA (XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARI)**

**Annotatsiya.** Maqolada Buxoro vohasi aholisining XIX asr oxiri XX asr boshlarida dehqonchilik bilan bog'liq urf – odat va marosimlari o'rganilib, milliy qadriyatlarimizda ularga bo'lgan hurmat va e'tibor juda yuqori ekanligi Sharq allomalarining qarashlari asosida tahlil qilib beriladi. Hozirda ziroatchilikning jamiyatdagi mavqeini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, bu islohotlarning samaradorligi ko'p jihatdan milliy qadriyatlarimizga bog'liqligi ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** urf-odat, kult, dehqonchilik, farishtalar, Navro'z bayrami, otashparastlik, hosildorlik, mifologiya, olov.

**ОБ ОБЫЧАЯХ, СВЯЗАННЫХ СО СБОРОМ КОЛОСОВЫХ КУЛЬТУР В  
БУХАРСКОМ ОАЗИСЕ (КОНЕЦ 19 ВЕКА, НАЧАЛО 20 ВЕКА)**

**Аннотация.** В статье исследуются обычаи и обряды, связанные с земледелием жителей Бухарского оазиса в конце 19-начале 20 веков, и уважение и внимание к ним очень высоки в наших национальных ценностях, основанных на взглядах восточных ученых. В настоящее время анализируются реформы, проводимые для улучшения положения сельского хозяйства в обществе, и показано, что эффективность этих реформ во многом зависит от наших национальных ценностей.

**Ключевые слова:** обычаи, культ, земледелие, ангелы, праздник Навруз, поклонение огню, урожайность, мифология, огонь.

**ABOUT THE CUSTOMS RELATED TO THE COLLECTION OF SPIKE CROPS  
IN THE BUKHARA OASIS (END OF THE 19TH CENTURY, BEGINNING OF THE  
20TH CENTURY)**

**Annotation.** In the article, the customs and rituals related to farming of the inhabitants of the Bukhara oasis in the late 19th and early 20th centuries are studied, and the respect and attention to them is very high in our national values is analyzed based on the views of the scholars of the East. Currently, the reforms implemented to improve the status of agriculture in society are analyzed, and it is shown that the effectiveness of these reforms largely depends on our national values.

**Key words:** Tradition, cult, farming, angels, Navruz holiday, fire-worshipping, harvest, mythology, fire.

Ziroatchilik bilan bog'liq bo'lgan xalq urf-odatları va marosimlar dono xalqimiz tafakkurining g'aroyib mo'jizalaridan biridir. Ajdodlarimiz asrlar davomida ularga amal qilish bilan birga o'ziga xos qoidalar, duolar, aytimlar va alomatları ham yaratishgan. Ijtimoiy kundalik hayotda katta o'rin tutgan bu marosimlarda, avvalo ziroatchilik bilan bog'liq udum va marosimlar o'zining kelib chiqish ildizları islomgacha bo'lgan tabiat hodisalarini ilohiylashtirish, osmon va er ilohlariga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan.

Bajarilayotgan har bir irim, urf-odat zamirida voha ahlining ziroatchilik bilan bog'liq asriy hayotiy tajribaları, ziyraklik bilan uzluksiz kuzatishları jamlangan bo'lib, ularning tub mohiyatiga

e'tibor berilsa, ezgulikning hayotbaxsh nurlariga talpinish, dehqonchilikda samarali hosil etishtirish, yuz berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklardan ogoh etish, halol mehnatni rag'batlantirish tabiat ne'matlarini ko'paytirish va avaylab asrashdan iborat bo'lgan.

XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Buxoro xonligiga qarashli barcha tumanlarida yashovchi aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida patriarxal – urug'chilik munosabatlari an'analari hukm surardi. Bu davrda Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishi o'zbek xalqi hayotidagi muhim ijtimoiy-siyosiy va madaniy muammolarni yoppasiga yuzaga chiqardi. Ijtimoiy taraqqiyotning mana shu bosqichi dehqon va ziroatchilik bilan bog'liq bo'lgan bir qancha rasm-rusumlarning xarakterini belgilab berdi. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Dala yozuvlari.
2. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr etilgan tadqiqotlar.

Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

Bugungi kunda milliy mafkurani mustahkamlash xalqimizning ma'naviy ruhiy tiklanishi, jarayonlari uning muqaddas zaminimizga, ya'ni tabiatga bo'lgan munosabat bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek: "sivilizasiya belgilarini asrab – avaylash qanchalik zarur bo'lsa, qishloq xo'jaligining yillar mobaynida butunlay sug'oriladigan dehqonchilikka asoslangan mintaqada er va suvni asrab avaylash ham muhimdir".

Darhaqiqat, xalqimiz qadimdan dehqonchilikni munosib qadrlab kelgan. Dehqonlar va chorvadorlar hayotida har faslning o'ziga xos o'rnini bo'lgan. Birida eksa, boshqasida parvarishlangan, yana birida esa hosilni yig'ib olgan, kelgusi yil hosili uchun zamin hozirlagan. Chorvadorlar ham qishlov taraddudini ko'rishgan, yil davomida mo'l – ko'l em – xashak yig'ishga intilishgan. Albatta, ajdodlarimiz mavsumiy ishlarni ko'ngildagidek amalga oshirish uchun maslahat qilib ish ko'rganalar. Oila, urug' va jamoalarda ish boshida oqsoqollar, kayvonilar, miroblar, din peshvolari va tajribali dehqonlar turishgan. Har faslda yangi ishga qo'l urishdan oldin muayyan marosimlar, urf-odatlar va an'analar o'tkazilgan. Bu rasm – rusumlar, irim – sirimlar barcha xalqlarda bo'lganidek, XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligiga qarashli hududlarda yashovchi xalqlarga ham mansub bo'lgan.

Dala suhbatlari, Buxoro vohasining juda ko'p qishloqlarida XX asrning boshlarida ziroatchilar va bog'bonlar tomonidan turli xil marosimlar o'tkazilganligini, jumladan, boshoqli ekinlarni o'rish va yanchish bilan bog'liq bir qator udumlar ham amalga oshirilganligidan dalolat beradi. XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Buxoro vohasida hosilni yanchish va xirmon ko'tarish bilan bog'liq bir qator urf – odatlar va marosimlar o'tkazilgan. Dala yozuvlarining guvohlik berishicha, bunday odatlar va marosimlarda xalqqa xos bo'lgan eng yaxshi fazilatlar: bag'ri kenglik, saxiylik, tantilik, chinakkam xalqchil va umuminsoniy qadriyatlar o'z ifodasini topgan. Shuni aytish kerakki, voha dehqonlari dala ishlarini asosan, mahalliy temirchi ustalar yasagan belkurak, ketmon, kapcha, o'roq, chor-shoxa kabi asboblardan bilan amalga oshirgan. Bug'doy o'rini bilan bog'liq marosimlarning ba'zilar hozirgacha saqlanib qolgan. G'alla o'rini dehqon hayotining eng dolzarb, mas'uliyatli davri hisoblangan. Albatta, dehqon taqvimining har bir davriga oid marosim va irim – sirimlar anchagina. Shulardan biri "xayrixudoyi" bo'lib, bu marosim o'rim – yig'im boshlanishidan oldin o'tkazilgan. Xayrixudoyi odatining tarixiy ildizlari uzoq zamonlarga borib taqaladi. Bu odat Olloh yo'lida qilingan xayr – ehson bo'lib, xudo yo'li, xatmi- "Qur'on", duoyu fotiha, qon chiqarish, qurbonlik deb ham atalgan. Taniqli elshuos olim E.T.Teylor xayrixudoyi marosimlarini xuddi iltijo va duolar insoniyatning ilk, eng quyi bosqichi taraqqiyotiga xos deb qaraydi. Umuman, qurbonlik qilish diniy e'tiqodning qadimiy, ilk shakllaridan to'kim zamonaviy, jahon dinlarigacha xos bo'lgan marosimdir. Masalan, qadimgi shumnerliklar ho'kiz, sigir, qo'y kabi hayvonlar bilan birga ba'zan parrandalarni ham qurbonlik qilishgan, egulik ne'matlaridan ham tangrilarga ehson etishgan.

Vohada paykal a'zolari o'rimga tushish oldidan daladagi hosilning miqdorini o'lchaganlar. Paykal boshiga iymon – e'tiqodli, serfarzand va haromdan hazar qilgan keksalar borishgan. Ular eng etilgan, serdon, o'rtacha va eng kichik pishgan boshoq ya'ni uchta boshoq olishgan. So'ngra

ularning doni ajratib olingan va belgilangan maydondan olinadigan hosil miqdorini chamalaganlar. Paykal a'zolari oqsoqol va ellikboshilarni chorlab, xayrixudoyi qilishgan. Avval 3,5, 7 ta cho'zma pishirib, "is" chiqarilgan. Uy egasi yoki paykal a'zolari jonlik so'yib, qon chiqargan. Xayrixudoyida hasharchilar, din peshvolari va keksalar ishtirok etishgan. Taom iste'mol qilib bo'lingach, qishloq mullasi "Qur'on" oyatlaridan qiroat qilib xudodan, Bobodehqondan, avliyo – anbiyolardan hosilning mo'l bo'lishini, xirmonning barakasini so'rashgan. Oqsoqollar xayrixudoyini omadli, fayzli kunda o'tkazishni maslahat berib shunday kunni avvaldan belgilashgan. O'rimga (hasharga) nopok kishilar yaqinlashtirilmagan. Bug'doyning ilk tutamini ham boy – badavlat yoki fazilatli kishi o'rib bergan. Shundan so'nggina yoppasiga o'rim – yig'im boshlangan.

Bug'doydan avval "tak – tak", "yovvoyi arpa", pishgan. Hamma doni qolmagan oilalar ularning donini terib kelib, un qilishgan. Keksa dehqonlar boshhoqning pishib etilgani haqidagi xabarni keltirishgach, o'rimga tayyorgarlik boshlangan. O'ziga to'q, badavlat oilalarda jamoa a'zolari birgalikda xudoyi oshi tayyorlangan. Bunda palov, sho'rva, un oshi kabi ovqatlar pishirishgan. Albatta, qo'y, uloq yoki parranda so'yib qon chiqarilgan. Xudoyi oshiga qishloq ahli – keksalar, mirob va qisman hasharchilar taklif etilgan. O'rimni esa keksa kishi boshlab bergan.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan irim – sirimlardan, yana biri shogirdlarga "oq fotiha" berishdir. Bu marosim ham bug'doy o'rimining boshlari bilan bog'liq bo'lib, hasharga, ya'ni g'alla o'rimiga otaning suyagi qotgan o'g'lini birinchi bor etaklab chiqqanda o'tkazilgan. Bola dastlab o'roqni ko'ngildagidek ushlay olmagan, bug'doy poyalarini tutamiga sig'dirolmagan, bog'ni bog'lay olmagan – ishi yurishmagan. Bunday holni kuzatib turgan o'roqchilar yigitchani ushlab qo'lini bog'lashgan va o'rimga ruxsat etishmagan. O'g'lining holini ko'rgan ota unga yordamga kelgan va keksa o'roqchilarning biridan o'g'liga g'alla o'rishni o'rgatishni so'ragan. Bosh o'roqchi unga "kaptar dumi", (O'rilgan bug'doy poyalari beshbarmoqlar orasiga olinadi) "g'avza" (Qo'l o'rilgan bug'doy poyasiga to'ladi) usulida o'rishni o'rgatgan. O'rimda o'roqchi barmoqlariga "qo'lpo'stak" (oshlangan teridan tayyorlangan qo'lqop) kiygan. Bu esa ish unumini ancha oshirgan. O'roqchi belbog'iga "qamchin buta" (egiluvchan sinmaydigan butta novdalari) dan tayyorlangan 20 – 30 ta bog'ni ham qistirib yurgan.

O'rilgan poya ko'ksini to'ldirgach, 15 – 20 g'avzani bir joyga to'plab, bir bog' qilib bog'lab ketgan. Ota o'g'lining ishidan ko'ngli to'lgach, jonlik so'yib hasharchilarni, usta o'roqchi, mirob va oqsoqollarni uyiga taklif etgan. Dasturxon xonadon egasining imkoniyatiga qarab turli ne'matlar bilan bezatilgan. Taom eb bo'lingach, usta o'roqchi shogirdini putining orasidan o'tkazib oladi. Marosim yakunida usta o'roqchi shogirdiga oq fotiha beradi. Dasturxon tevaragida o'tirganlar ham usta o'roqchining tilaklarini qo'llab – quvvatlashgan.

Yuqorida tilga olganimiz, yoz fasli bilan bog'liq ijtimoiy mazmundagi marosim va urf – odatlar hosilning etilishi, pishishi, ularni nes – nobud qilmay yig'ib – terib olish bilan bog'liq muammolarni ijobiy hal etishda muhim rol o'ynagan. Shu boisdan ham ularning umri uzun bo'lib, hanuzgacha o'z qadr – qimmatini yo'qotgani yo'q.

Xulosa. Ajdodlarimiz tomonidan hayotga tatbiq etilgan dala ishlari bilan bog'liq marosim taomillarida ezgulik va donolik mujassamlashgan. Birinchidan, voyaga etib elga qo'shilayotgan yigit – qizlar mehnat qilishni o'rgangan, ish jarayonida odamlar bilan muomala qilish maktabini o'tagan. Ikkinchidan, jamoat joylarida, katta – kichiklar davrasida o'zini tutish, keksalarni hurmat qilish kabi xislatlarni qalbiga singdirib olishgan. Uchinchidan, og'ir mehnatdan keyingi hazil – mutoyibalar kishi vujudidagi charchoqni tarqatgan. Umuman, yuqorida sanab o'tilgan udumlar va taomillar voha aholisi turmushida ming yillardan buyon saqlanib kelib, milliy qadriyatlarining ajralmas qismiga aylangan, turli xil ko'rinishdagi marosim va urf – odatlar qishloq aholisi madaniyatining asosini tashkil etgan

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. И.А.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида; “Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.” – Т., Ўзбекистон, 1997. – Б. – 145. (И.А.

Karimov. Uzbekistan is on the threshold of the 21st century; "Security Threats, Stability Conditions, and Development Guarantees." - T., Uzbekistan, 1997. - B. - 145.)

2. Андреев М.С. Таджики долины Хуф. Сталинабад, 1953. -Выш.1. - С. 1 1-12. (Andreev M.S. Tajiks of the Khuf Valley. Stalinabad, 1953. - Higher 1. - S. 1 1-12).

3. Богомолова К.А. Следь древнего культа воды у таджиков//Изв.отд. общественных наук. АН Тадж ССР. Сталинабад, 1952. - Выш. 2. - С. 19-21.( Bogomolova K.A. Traces of the ancient cult of the waters among the Tajiks//Izv.otd. social sciences. Academy of Sciences of the Taj SSR. Stalinabad, 1952. - Vsh. 2. - S. 19-21.)

4. Кисляков Н.А. Патриархально-феодалное отношение среди оселого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX - начала XX вв//ТИЭ. -М-Л. 1962. – С 28-29.(Kislyakov N.A. Patriarchal-feudal attitude among the settled rural population of the Bukhara Khanate in the late XIX - early XX centuries // ТИЭ. -М-Л. 1962. - From 28-29.)

5. Моногарова Л.Ф. Материалы по этнографии ёзгулумцев//ТИЭ. и.с.. 1959. т.XI. - Вып. VII - С. 12 (Monogarova L.F. Materials on the ethnography of the people of Ezgulum//ТИЭ. I.S. 1959. v.XI. - Issue. VII - S. 12)

6. Мухиддинов И.Реликты доисламских обычаев и обрядов у земледельцев Западного Памира (XIX-начало XX в). -Душанбе, 1989. -С. 11.( Mukhiddinov I. Relics of pre-Islamic customs and rituals among the farmers of the Western Pamirs (XIX-early XX century). -Dushanbe, 1989. -S. eleven.)

7. Мирзаев Т., Жўраев М. Асрларни мунаввар қилган байрам-Наврўз. -Т., 1992. – Б.58.( Mirzaev T., Joraev M. Navroz is a holiday that has illuminated the ages. -Т., 1992. -B.58.)

8. Akhmatovna D. N., Bahriddinovna T. G. Traditions related to harvesting grain crops in Bukhara region (The end of XIX century and the beginning of XX century) //Academy. – 2020. – №. 6 (57).